



**MILLIY GVARDIYA BO'LINMALARIDA YURIDIK XIZMAT  
FAOLIYATINI HUQUQIY ASOSLARI.**

**Jabborov Norbek  
To'xtamurodov Muhridin**

Karabuk universiteti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7638310>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Milliy Gvardiya bo'linmalarida yuridik xizmat faoliyatini huquqiy asoslari huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyat va hayotdagi mavqeini yana-da oshirishga xizmat qilish kabi fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: tinchligi, osoyishtaligi va xavfsizligi, huquqbuzarliklarning, ijtimoiy-maishiy tUSDagi jinoyatlarning oldini olish, Milliy gvardiya organlari, Xalq manfaatlariga xizmat qilish.

Mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini, ayniqsa o'rta va quyi bo'g'inda huquqiy jihatdan ta'minlash hamda ularga sifatli va professional yuridik xizmat ko'rsatishga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sohaga tajribali kadrlarning jalb qilinishidagi kamchiliklar hujjatlar loyihalarining iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada qabul qilinayotgan qarorlar va boshqa hujjatlar ko'p hollarda joylarda jismoniy va yuridik shaxslarning e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Mamlakatimizning tinchligi, osoyishtaligi va xavfsizligi, huquqbuzarliklarning, ijtimoiy-maishiy tUSDagi jinoyatlarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurash, ularga chek qo'yish, sodir etilganlarini fosh etish, jamoat tartibini saqlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasida tizimli va samarali chora-tadbirlari amalga oshirilishida sezilayotgan kamchiliklar, tizimli ishlarning sustligi, bu borada ishlarning samarali tashkil etish maqsadida yana bir organ — O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etilgan bo'lib, uning huquqiy asosi, ya'ni "O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Ushbu organning tashkil etilishiga ehtiyoj sezildi va 2017-yilda tashkil etildi, biroq faoliyatini tartibga solishga qaratilgan huquqiy asos mavjud emasdi.

Shu o'rinda Milliy gvardiya organlari tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Milliy gvardiya (fr. Garde Nationale, ingl. National Guard), milliy posbonlar (ital. guardia - posbon) - turli mamlakatlarda va tarixiy davrlarda har xil qurolli tashkilotlarning nomi bo'lgan. Dastlabki organ Fransiya va AQSHda 1830-1872-



ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

yillarda tashkil etilgan, 1940-yillarda Shvetsiya Milliy gvardiyasi va Rossiya Milliy gvardiyasi qo'shinlari faoliyat yurita boshlagan.<sup>1</sup>

Hammamizga ma'lum O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyun kungi "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori va ushbu Qarorga asosan "Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari to'g'risida" gi Nizom qabul qilingan. Ushbu Nizom Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi Yuridik xizmat ko'rsatish markazlarining maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi, shuningdek faoliyatini tashkil etish tartibi belgilangan. Shunga asosan 2021-yil 1-oktabrdan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzurida yuridik xizmat ko'rsatish markazlarini respublikaning barcha tuman (shahar)larida tashkil etildi va 2021-yil 4-oktabrdan Markazlar o'z faoliyatini boshladi.

Markazlar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, Oliy Majlis palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, adliya vaziri, hududiy adliya organlari rahbarlarining buyruqlari, tegishli davlat organlari va tashkilotlarining hujjatlariga, shuningdek "Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari to'g'risida" gi Nizom asosida amalga oshiradi. Bugungi kunda Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan "E-huquqshunos" elektron tizimi oraqli Markazlarga buyruqlar, farmoyishlar, shartnomalar va yuridik tusdagi boshqa hujjatlarning loyihalari elektron tarzda yuborilmoqda. Markazga kelib tushgan hujjat rahbar tomonidam mas'ul xodimga biriktiriladi va xodim 3 kunlik muddat ichida huquqiy ekspertizadan o'tkazish yoki kelishish uchun taqdim etilgan idoraviy va yuridik tusdagi boshqa hujjatlar loyihalarini mustaqil yoki yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarning tegishli tuzilmalari bilan birgalikda huquqiy ekspertizadan o'tkazadi, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijasiga ko'ra e'tirozi bo'lsa, ularning qonunchilikka, qonunchilik texnikasi qoidalariga, havola qiluvchi normalar qo'llanilishining asosiligi va maqsadga muvofiqligi, shuningdek ularda korrupsiyaga sabab bo'ladigan omillarning mavjudligi yoki mavjud emasligi yuzasidan yuridik xulosalar tayyorlaydi.

<sup>1</sup> <https://yuz.uz/uz/news/milliy-gvardiyaning-huquq-asoslari-yaratildi>



ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

Idoraviy va yuridik tUSDagi boshqa hujjatlar loyihalari bo'yicha e'tiroz va takliflar bo'lmasa, ularga viza qo'yadi. Bunda, loyihalarga Markazlar xodimlari tomonidan yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarning rahbar o'rinbosarlari va tarkibiy tuzilmalari rahbarlari (xodimlari) ko'rib chiqib imzolaganidan keyin viza qo'yadi.

Yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlari bilan hamkorlikda yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar xodimlarining huquqiy madaniyatini oshirish, ularga qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun va ahamiyatini yetkazish, yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar xodimlarining huquqiy bilimlarini oshirish tadbirlarini tashkil etish to'g'risida takliflar kiritadi, ushbu tadbirlarni o'tkazishda ishtirok etadi, shuningdek yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar xodimlarining murojaatlari bo'yicha ularga tashkilot faoliyatiga tegishli huquqiy hujjatlarni topishga ko'maklashadi, zarur hollarda ularning qoidalari bo'yicha tushuntirishlar beradi, qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar haqidagi ma'lumotlarni, sud amaliyotini, Adliya vazirligining huquqiy ishlarga taalluqli ko'rsatmalarini yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarga yetkazadi.

Markaz xodimlari shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da'vo ishlarini yuritish, sud protsesslarida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda vakil sifatida ishtirok etadi, tashkilotning mulkiy va boshqa manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydi, davlat organlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek fuqarolar bilan nizolar vujudga kelganda, mustaqil yoki yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarning mas'ul xodimlari bilan birgalikda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radi.

Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning qonuniy hamda har tomonlama puxta va sifatli bo'lishini ta'minlash bo'yicha, yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi yoki ishlab chiqilishida ishtirok etadi, yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi, ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar loyihalarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtai nazardan baholaydi va xulosalar beradi, shuningdek yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi va ularning natijalari



ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

bo'yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilishida ishtirok etadi, yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va zaruratga ko'ra yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar xodimlariga nisbatan o'tkaziladigan xizmat tekshiruvlarida qatnashadi, korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi.

### XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash sohasidagi o'zaro hamkorligining huquqiy va tashkiliy-taktik asoslarini takomillashtirish jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligiga qarshi qaratilgan g'ayriijtimoiy hatti-harakatlarni aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish kabi faoliyatlarini samarali tashkil qilish uchun imkon beradi.

Mamlakatimizda Milliy gvardiya organlari tashkil etilganligining yana bir dolzarbligini butun dunyo va respublika bo'ylab e'lon qilingan koronavirus pandemiyasi sharoitidagi ko'rsatgan jonbozligi va soha xodimlarining tun-u kun tinim bilmay qilgan mehnatlarida yaqqol namoyon bo'ldi va buning guvohi bo'lib turibmiz.

Qonunning qabul qilinishi bilan Milliy gvardiyaning faoliyatini huquqiy tartibga solindi va unda organning huquqiy maqomi hamda asosiy vazifalari belgilab berildi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo'shinlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo'lgan maxsus turi ekanligi o'rnatildi. Shuningdek, Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

terrorizmga qarshi kurashishda, shuningdek terrorchilik harakatlarining hamda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish;

tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish, surishtiruv o'tkazish, jinoyat ishlarini qo'zg'atish va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish; davlat obyektlarini, o'ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlash; qo'riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;





ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish;

jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig'ilishlar, namoyishlar o'tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo'ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash;

favqulodda holat, alohida davr va terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o'tkazish sharoitlarida huquqiy rejimni ta'minlash;

qo'riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etish;

chet davlatlarning rasmiy vakillarini, oliy darajadagi xorijiy delegatsiyalarni kutib olishda va kuzatib qo'yishda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokidagi tantanali tadbirlar chog'ida rasmiy marosimlarni o'tkazish;

huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish maqsadida aholi punktlaridagi jamoat joylarida patrullik qilish;

O'zbekiston Respublikasining hududiy mudofaasi tizimida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini jangovar qo'llash rejalari bo'yicha maxsus vazifalarni hal etish, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo'shinlariga O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo'riqlash hamda himoya qilishda ko'maklashish.

Boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlardan farqli ravishda Milliy gvardiyaning boshqaruv organi Milliy gvardiyaning markaziy devoni etib nomlandi.

Qonunda Milliy gvardiyaning faoliyatini tashkil etishda Milliy gvardiya bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunishi va unga hisobdorligi, unga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan Milliy gvardiya qo'mondoni rahbarlik qilishi, qo'mondon esa maqomiga ko'ra vazirga tenglashtirilishi qayd etildi.

Shu bilan birga, mazkur qonun bilan Milliy gvardiya faoliyatining asosiy prinsiplari etib qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish, yagonalik, mustaqillikdan iboratligi, Milliy gvardiya harbiy xizmatchisining (xodimining) o'z vakolatlari doirasida qo'yilgan qonuniy talablari, shu jumladan qonunga rioya etish, hujjatlarni, tekshiruv materiallarini va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish, mutaxassis ajratish, Milliy gvardiyaga kelish hamda aniqlangan qonunbuzarliklar xususida tushuntirishlar berish to'g'risidagi, qoidabuzarliklarni, shuningdek ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish haqidagi qonuniy talablari barcha davlat



ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiyligi o'ratildi hamda Milliy gvardiyaning huquq va majburiyatlari, harbiy xizmatchilarning (xodimlarining) huquqiy va ijtimoiy himoya qilish kabi normalar mustahkamlandi.

Bularning bari huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida Milliy gvardiya organlari harbiy xizmatchilarning (xodimlarining) huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyat va hayotdagi mavqeini yana-da oshirishga xizmat qilishi shubhasiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз мустақиллиги – биз учун куч-қудрат ва илҳом манбаи, тараққиёт ва фаровонлик асоси // Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг 30 йиллик байрамига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи
2. Зиёдуллаев М.З. Милиция таянч пунктларининг жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш фаолиятини бошқаришни такомиллаштириш. Юрид. фан. номзоди. Дис.-Т., 2008. – Б. 114.
3. Ўзбекистон Республикасининг ички ишлар органлари тўғрисидаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, – 2017. – № 37. – 978-м.
4. Asadov, S. F. O. G. L. (2021). FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARDA DAVLAT ISHTIROKI (DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MISOLIDA). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 789-799.

